

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

“Ey, nodon, ilm ol, axloq o‘rgan, yo‘qsa yovuzlik ichida nobud bo‘lasan!”¹¹⁸

Ushbu fikr Behbudiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini aniq aks ettiradi. Asarda inson ma‘naviy va ilmiy jihatdan yetuk bo‘lishi zarurligi ta‘kidlangan. Behbudiynazarida, inson jaholatdan faqat ilm orqali qutulishi mumkin. “Padarkush” dramasida o‘qimagan va tarbiyalanmagan avlod qanday qilib jamiyat uchun xavf tug‘dirishi tasvirlanadi. Bu asar orqali muallif millatga pand-nasihat berib, yoshlarni ilm va axloq bilan tarbiyalashga chaqirgan.

Hozirgi kunda Behbudiyning ilmiy merosi o‘zbek ma‘rifatchiligi, tarixshunosligi va adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etmoqda. Uning pedagogik qarashlari hozirgi zamonaviy ta‘lim tizimida qo‘llanilmoqda, matbuotchilik sohasidagi faoliyati esa bugungi jurnalistika rivojiga turtki bo‘lgan. Behbudiyn ilgari surgan ma‘naviy va ilmiy tamoyillar hozirgi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim bo‘lib, uning merosi hali ham chuqur tadqiq etilishi zarur bo‘lgan sohalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy merosi o‘zbek xalqi ma‘naviy va ilmiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning pedagogik, adabiy va tarixiy qarashlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mustaqillikdan so‘ng uning faoliyatini yangicha nuqtai nazardan o‘rganish imkoniyati kengaydi va bugungi kunda ham bu borada tadqiqotlar davom etmoqda. Behbudiyn ilgari surgan g‘oyalar hozirgi o‘zbek jamiyati taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etib, uning ma‘naviy va ilmiy tamoyillari hali uzoq yillar davomida o‘rganilishi lozim bo‘lgan qimmatli ilmiy meros sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiyn M. “Padarkush”. Toshkent: Jadid Nashriyoti, 1913. –56 b.
2. Salohiy, A. (2000). "Jadidchilik harakati va uning namoyandalari". Toshkent: Fan.
3. G‘afurov, U. (2015). "O‘zbek jadidlari va ularning ilmiy-ma‘rifiy faoliyati". Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Karimov, I. A. (1997). "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q". Toshkent: O‘zbekiston.
5. Vohidov, S. (2018). "Jadid matbuotchiligi: ilmiy tahlil va tarixiy xulosa". Toshkent: Akademnashr.

SO‘FI OLLOYOR HAZRATLARINING “ بيان كرامت اوليا ” YA’NI “ AVLIYOLAR KAROMATLARI BAYONI “ SHARHI VA TAHLILI

Usmonov Murodjon Ibrohim o‘g‘li

Yangi asr universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish (SHMT) 301.22. 3 – kurs talabasi

¹¹⁸ Behbudiyn M. Padarkush. Toshkent: Jadid Nashriyoti, 1913. –B.45.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Anotatsiya : Bu maqolamizda So‘fi Olloyor (صوفي الله يار) hazratlarining “ Sabotul ojizin “ (بيان كرامت اوليا) ning tahlili bilan tanishasiz . Kelgusi satrlardan shuni anglaymiz-ki , hazratning bizga qoldirib ketgan meroslari kundan – kunga o‘z ahamiyati va mazmuni oshib bormoqda . Shunday ekan , So‘fi Olloyor (rohimahulloh) ning hayotlari, hikoyatlari va hikmatlari keyingi yillarda ham ko‘p talabalar, o‘qtuvchilar , olimlar va professorlar tomonidan o‘rganib borilaveradi. Maqolamizdan o‘zingiz , oilangiz va kelgusi ilmiy ishlaringizda oz bo‘lsa ham manfaat ko‘rsangiz biz o‘z maqsadimizga yetgan bo‘lamiz .

Kalit so‘zlar: Xoliqi odat , irxos , maunat, istidroj , avomir, furu , qirdor , id , qadi , beqiyl, hudnamo , niyz, holo , pos.

Analysis of the Sufi saint's " بيان كرامت اوليا " or "Biyan Karamatlari Auliya"

Annotation: In this article, you will get acquainted with the analysis of one of the wisdoms of the work “Sabotul Ajizin” (ثبات العاجزين) of Sufi Alloyor (صوفي الله يار), “The Explanation of the Miracles of the Saints” (بيان كرامت اوليا), which is one of the wisdoms of the work “Sabotul Ajizin” (ثبات العاجزين). From the following lines, we understand that the heritage that the saint left us is increasing in importance and content day by day. Therefore, the lives, stories and wisdoms of Sufi Alloyor (رحمه الله) will continue to be studied by many students, teachers, scientists and professors in the coming years. If you benefit even a little from our article for yourself, your family and your future scientific work, we will have achieved our goal.

Keywords: Xoliqi odat, irxos , maunat, istidroj , avomir, furu , qirdor , id , qadi , beqiyl, hudnamo , niyz, holo , pos.

АНАЛИЗ « بيان كرامت اوليا » СУФИЯ ОЛЛОЯРА, ТО ЕСТЬ «ДЕКЛАРАЦИИ БЛАГОСЛОВЕНИЙ СВЯТЫХ»

Аннотация: В этой статье вы познакомитесь с анализом одной из мудростей произведения суфия Оллояра (صوفي الله بار) «Саботул Аджизин» (ثبات العاجزين) «Изложение благословения святых». Из следующих строк мы понимаем, что значение и значение наследия, оставленного нам Хазратом, день ото дня возрастает. Поэтому жизнь, истории и мудрость суфия Оллояра (да пребудет с ним мир) в ближайшие годы будут продолжать изучаться многими студентами, учителями, учеными и профессорами. Если наша статья принесет вам, вашей семье и вашей будущей научной работе хоть какую-то пользу, мы достигнем своей цели.


Ключевые слова: Xoliqi odat , irxos , maunat, istidroj , avomir, furu , qirdor , id , qadi , beqiyl, hudnamo , niyz, holo , pos.



Erur barhaq karomat avliyodin ,

Inoyatdur valiylarg'a Xudodin .

Avliyolarning karomatlari barhaqdir va bu Yaratgandan valiylarga bir inoyatdir . Karomat “ Xoriqi odat – odatdan tashqari ish “ deb nomlanadi. Ya’ni , odatdan tashqari , insonning aqliga sig‘maydigan ishlardir.



Karomat xoliqi odat erur ism ,

Bo'lubdur xoliqi odat necha qism .

Xoriqi odat bir necha qismga bo‘linadi :


Mo‘jiza : Bu Payg‘ambarlarga xos sifatdir.

Irhos : Bir ish asosini mahkam va ustuvor qilishga aytiladi . Lug‘aviy ma‘nosi – darak berdi , uni asosladi vas obit qildi , bo‘ladi

Karomat : Bu Avliyolarga xos sifatdir.

Maunat : Madad , ko‘mak , yordam . Agar xoriqi odat solih kishidan ko‘rilsa , beshaku shubha karomatdin bo‘lur. Agar bir avom mo‘min kishidan ko‘rilsa, ul kishining aqidasi mahkam va sobit bo‘lishiga ma‘unat (yordam) va ko‘makdur .

Istidroj : Yomon odat , davomli azob , sekin – sekin ilohiy azobga yaqin qilmoq.



Nabiydin xoliqi odatni ta'yin ,

Dedilar : Mo'jiza , ey Tolibi din.

Nubuvvatdin burunni derlar irhos,

Muni bilsang kerakdur , ayyuhannos .

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Agar solih kishidin bo'lsa har goh,
Karomatdin bo'lur beshakku ishboh.
Ko'runsa bir avom mo'min ishidin,
Maunatdur o'shal ayg'on kishidin .
Agar ko'rsatsa mundog' kofir inson ,
Ul istidroj erur monandi shayton .

Ey dinni talab qiluvchi zot, bilginki, payg'ambardan ro'y beradigan xoriqi odatni “ **mo'jiza** “ deyiladi . Ey inson, bilginki, agar bunday hodisa payg'ambar bo'lishlaridan oldin sodir bo'lgan bo'lsa , uni “ **irhos** “ deyiladi .

Agar har qachon solih kishidan xoriqi odat sodir bo'lsa , bu shak – shubhasiz “ **karomat** “ dir.

Agar xoriqi odat biror avom mo'minning ishida namoyon bo'lsa, “ **maunat** “ dir, bu unga mustahkam imyon topishi uchun bir madaddir.


Agar biror kofir bu kabi ishlarni ko'rsatsa , bu xuddi shaytondan bo'lgani kabi yomon odatdir, “ **istidroj** “ dir.

Demak, biror kofirdan odatdan tashqari ish sodir bo'lsa, bu ishni “ istidroj “ deyiladi. Shayton, sehrGAR , nayrangboz va dajjol kabilarga beriladigan ba'zi xavoriqlar istidroj deb ataladi. Istidroj – oz-oz , kam-kam va sekin-sekin ilohiy azobga yaqin qilinish degan ma'nodadir.

Qur'oni karimda ham istidroj so'zi ana shu mazmunda kelgan :

فَذَرْنِي وَمَنْ يُكَذِّبْ بِهَذَا الْحَدِيثِ سَنَسْتَدْرِجُهُمْ مِّنْ حَيْثُ لَا يَعْلَمُونَ

“ Bas , (ey , Muhammad !) Ushbu So'zni (Qur'onni) yolg'onga chiqaradigan kimsalarni menga qo'yib bering ! Yaqinda Biz ularni o'zlari bilmaydigan (Sezmaydigan) tomondan darjama – daraja tutgaymiz (halokatga duchor qilajakmiz) Qalam surasi, 44- oyat .




Vale ul orifi billoh bo'lsa ,
Yomon ishdin qo'li qo'toh bo'lsa .
Avomirni hamisha qilsa ul qul ,
Taqi " qilma " deganni qilmasa ul .
Yaratqon Tangrini qo'rqunchidin niyz ,
Qayu shubha degondin qilsa parhez .
Taqi lazzat bilan shahvatga , ey yor ,

Furu ham ketmasa ul yaxshi kirdor .

Bu ta'riflar kishiga bo'lsa sodiq ,

Valiydur ul aqoidg'a muvofiq .

Va lekin karomati zohir bo'lgan valiy zot Alloh taoloning ma'rifatidan xabardor bo'lsa , yomon ishlarni qilishdan qo'lini tortsa , gunoh ishlarni qilmasa , Haq taoloning amrlariga bo'ysunsa , nafsi ammorasini qul qilib olgan bo'lsa , shuningdek , Robbul olamin “ qilma “ deb qaytargan ishlardan qaytsa , yana Yaratgan Tangri taolodan xavf qilib , shubhali sanalgan narsalardan ham taqvo qilsa , saqlansa , yana u yaxshi amallar qiluvchi zot halol va muboh bo'lgan lazzat va shahvatga ham chuqur ketmasa ! Mana shu ta'riflar qaysi kishida bo'lsa , u **aqoidga muvofiq valiy** hisoblanadi.



Shariatsiz kishi uchsa havog'a ,

Ko'ngil berma aningdek xudnamog'a .

[Havog'a uchsa monandi chibindur ,

Ani hodiy dema shaytoni dindur]

Shariatsiz kishi gar yutsa o'tni ,

Havo o'rtasida minsa bulutni .


Qachon topg'on bo'lur qudrat idini ,

Valiy bilmang taqi andog' qadini .

Agar shariatsiz kishi havoga uchsa, bunday o'zini ko'z – ko'z qiluvchi kimsaga ko'ngil qo'ymang. (Ya'ni Alloh taolo kichkina chivinni ham havoga uchirib qo'ygandir. Unday kishini hodiy va rahbar dema, balki u din yo'lidan chiqarguvchi shaytondir.

Agar shariatsiz kishi o'tni yutsa yoki osmonga osmonga chiqib bulutni minsa-da, bu bilan qurbat hidini topib , Alloh taologa muqarrab bo'lib qolmaydi. Hech qachon bunday sassiq atir kabi qovoqbosh kishilarni valiy deb bilmang !

Ya'ni zohiri yaxshi , botini yomon (nomi ulug' , sufrasi qurug') hidsiz mushk kabi kishilardan har qancha karomatga o'xshash (istidroj) lar ko'rinsa ham , uni avliyo sanamang .



Bo'lubdur mundog' ishlar kofiriydin ,

Nechukkim bo'ldi sehri Somiriydin .


Eshitgil balki Fir'avn amridin Nil ,

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Quyidin yuqorig'a oqdi beqiyl .

Gohida bunday karomatga o'xshash ishlar kofirlarda ham zohir bo'lgan. Misol uchun , Somiriyning Bani Isroilga qilgan sehrnamo ishi shular jumlasidandir .


Eshitgin Nil daryosi Firavn amri bilan yuqoriga qarab so'zsiz oqqan .



Muni bilgilki Hindustonda holo,

Ucharlar kofiri sannosi bolo .

Shuni ham eslatib o'tish lozimki, Hindistonda hozirgi kunlarda (ya'ni, So'fi Allohyor (rohmatallohi alayh) yashagan asrlarda) Sannosiy otli riyozatkash kofirlar havoga uchar ekanlar . Bu hozirda yo'ga bilan shug'ullanuvchilarga to'g'ri keladi. Buni hech bir musulmon karomat deb anglamasligi lozim .



Shariat hukmin etmay istiqomat ,

Taajjub ishlari bo'lmas karomat .

Shariatni kishi kim tutsa xo'b pos ,

Karomat mundin o'tmas, ayyuhannos.

Xilofi nafsu istikmoli toat ,

Bo'lurmi ondin ortiq xarqi odat .

Shariat hukmlarini mustahkam tutmasdan , kishining ajablanarli ishlari karomat bo'lmaydi. Ey inson, kimki shariatning hukmlarini hurmat – ehtirom qilsa va unga rioya etsa, karomat bundan ortiq bo'lmaydi. Kishi nafsining xilofiga ish qilsa , toatlarni mukammal bajarsa , bundan ortiq xoriqi odat bo'lmaydi.

Izoh : Avliyolar ittifoqi ila va barcha tariqat peshvolari nazdida eng katta karomat – shariatda istiqomat qilmoqdir, ya'ni barcha amru nahiylarni bajo keltirmoqdir.



Kishi desa valiyni g'aybdondur,

Na'uvzu billah , ul so'z ko'p yomondur.

Nabiy ham bilmagay ushbu ravishdin,

Magar bildursa Tangrim ba'zi ishdin.

Xudoning xossasidur ilmi g'aybi,


“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bu so'zning bo'lmag'ay bir zarra raybi.

Agar kishi avliyoni “ g‘aybni biladi “ desa, Alloh saqlasin , bu so‘z juda yomondir . Chunki g‘ayb ilmini payg‘ambarlar ham bilmaydilar. FaqatginaHAq taoloning o‘zi ba‘zi ishlarni bildirsa, payg‘ambarlar ham , avliyo ham biladi. G‘ayb ilmi , g‘aybni bilish Alloh taologa xosdir. Bu so‘zga zarracha shak-shubha yo‘q. Buning dalili ushbu oyati karimadir :

عِلْمُ الْغَيْبِ فَلَا يُظْهَرُ عَلَى غَيْبِهِ أَحَدًا

U g‘aybni biluvchidir va hech kimni o‘z g‘aybidan xabardor qilmas (Jin surasi, 26-oyat)



Yaqin bil , g‘ayb ishidin folbinlar ,

Xabar bersa agar yo ahli jinlar .

Kishi chin desa ul botil so'zini ,


Bo'lib kofir , qaro qilg'ay yuzini .

[Na'uvzu billah , andog' mo'taqaddin ,

Xudoyim saqlag'ay bu ra'yi baddin .]

Agar folbin , rom ochuvchi va ajinani bo‘ysundirgan ahli jin insonlar biror ilmi g‘aybdan xabar bersalar va kimdir ularning botil so‘zini chin deb etiqod qilsa, aniq bilginki darhol kofir bo‘lib , yuzi qora va sharmanda bo‘ladi. Folbinlarning so‘zini chin deb e’tiqod qilishdan Xudoyi taolo panoh berishini so‘raymiz . BUnday yomon fikr va aqidadin Allohning o‘zi saqlasin.

Izoh : “ Na’uvzu billah “ bilan boshlanuvchi bayt ko‘p nusxalarda yo‘q !



Yaqin bilg'ilki ba'zi nomusulmon,

Demish : " Vaqtiki qurbat tobsa inson ,


Ko'tarur Xaq shariat hukmin andin ! "

Bo'lur yuzi qaro mundog' degandin .

Bu botil so'z erur qavli malohid,

Shariatga erur ul firqa johid .

Bilginki, ilmdan bexabar ba‘zi nomusulmon kishilar bunday deydilar. “ Qachonki, inson qurbat topsa , avliyo bo‘lsa, Haq taolo undan shariat ishlarini ko‘taradi “ . Bunday botil so‘zlari bilan o‘zlarini qaro yuzli, gunohkor qiladilar. Ular shariatga munkir boruvchi, dinga qarshi kimsalardir .



**Shariatga kishi kim bo'lsa munkir ,
Gumon yo'qdur , bo'lur albatta kofir.
Kishi bo'lmas muqarrab anbiyodin ,
Alar bezor o'lur ujbu riyodin.
Ko'tarilmadi o'lguncha alardin,
Xudo hargiz ko'tarmas o'zgalardin.**

Kimki shariat hukmlarini inkor etsa, gumon yo‘qki , albatta kofir bo‘ladi. Birorta inson Alloh taologa payg‘ambarlardan ko‘ra yaqinroq bo‘la olmaydi, axir. Payg‘ambarlar xudbinlik , man’anlik , riyo kabi yomon illatlardan bezor bo‘lib qochganlar. Alloh taolo shariat hukmlarini payg‘ambarlardan umrlarining oxirigacha ko‘tarmadi. Shunday ekan, bu hukmlarni boshqa insonlardan ham o‘lgunlaricha ko‘tarmaydi.

Hatto Alloh taoloning eng suyukli bandasi , ikki olam sarvari , olamlarga rahmat qilib yuborilgan Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (sollallohu alayhi vassallam) ga ham shariat ahkomlaridan birortasini qilmaslikka ruhsat berilmagan. U zotning hayotlari barchamizga o‘rnak, ibodatlari hammaga namuna bo‘lishi kerak .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. So‘fi Ollayor (ثبات العاجزين) kitobi ;
2. Rashid Zohidov “ So’fi Olloyor hikoyatlari “ 1 - kitobi ;
3. Mas’udxon Ismoilov , Abrorxon Akbarov “ So’fi Ollohyor “ (Sabotul ojizin sharhi) kitobi ;
4. Ilyasova G. R. 2009. Лингвотекстологические особенности произведений “Сабат ал-гаджизин” Аллаяра Суфи и “Рисала-и Газиза”. Дисс. кан. фил. наук. Уфа. Куръони карим. 2004.
5. Shayx Alovuddin Mansur. O‘zbekcha izohli tarjima. Qur’oni karimni o‘rganish ilmiy markazi. 180. 1911, صصلاح الدين سليمى. ارشاد العائدين شرح ثبات العاجزين. مطبعة كريمة قرآن، سيد حبيب الله بن ، صصلاحي يحي خان. هداية الطالبين شرح ثبات العاجزين صوفى الله يار. صصلاحي يحيي خان. سید یحی خان. ”Hidayat ut – tolibin ” – “ Sabot ul - ojizin” Sharhi. 2009.
6. Nashrga tayyorlovchi O. Alimov. Toshkent: “Toshkent islom universiteti ” nashriyot - matbaa birlashmasi . Севортян Э.В. 1974.
7. Этимологический словарь тюркских языков. Москва: Наука